



## ADABIY TA'LIMDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARING O'RNI

**Farida Abdullayeva**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*I-bosqich magistranti*

Adabiyot – bu millatning ruhi, millatning ko'zgusidir. Adabiy ta'linda adabiyot o'qitish orqali o'quvchilarda obrazli fikrlash, badiiy-estetik did, keng dunyoqarash kabi tushunchalar va kitobga, badiiy asarga bo'lgan muhabbat hissi oshadi. Zero, badiiy adabiyot inson qalb go'zalligini, dilidagi ezgulikni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Zamonaviy adabiyot darslarida milliy hamda jahon adabiyoti vakillarining durdona asarlari o'rinni olgan bo'lib ular, asosan, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va ularning ma'naviy olamini boyitishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning yangicha usullaridan biridir. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot yetishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1].

Ta'limda birdaniga raqamli texnologiyalarga o'tish murakkab jarayon, albatta. Ya'ni internet tarmog'ini yaxshilash, mobil aloqalarni shu bilan birga o'quvchi yoshlarga axborot kommunikatsiya texnologiyalarida erishilayotgan yutuqlarni o'rganishiga zamin yaratishimiz zarur. Axborot texnologiyalarining integratsiyasini ta'minlash orqali o'qituvchilarning ham kasbiy mahoratini oshirishga sharoit yaratish lozim. Shuningdek, dars jarayonida internet orqali bajariladigan multimediyali topshiriqlardan foydalanish, taqdimotlar yaratish o'quvchilar uchun qiziqarli jarayon bo'lib, dars samaradorligining yuqori bo'lishiga, mavzuning tez va oson o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Yildan-yilga yangilanib borayotgan adabiyot o'qitish metodikasi qadimiy va boy tajribaga ega bo'lgani holda, dunyodagi eng ilg'or yondashuvlar asosida turli metod va usullar bilan boyib bormoqda. Metodist olimlar adabiyot o'qitishning eng samarador usullarini ta'limga olib kirish orqali adabiyot darslarining sifatini oshirishga harakat qilmoqdalar. Bu borada yangilanayotgan adabiyot dastur va darsliklarini keltirib o'tish kifoya.



Maktab darsliklarini va o‘qitish usullarini yangilash haqida muhtaram Prezidentimiz o‘z nutqlaridan birida shunday degan edi: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, o‘zgarmaydi” [2].

Bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan umumta’lim maktablari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish borasida katta va ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-yilda nashr qilingan umumta’lim maktablarining 6-7-10 sinflari uchun adabiyot darsliklari nashr qilindi. Bu darsliklar tuzilish va mazmun jihatidan




bir qator o‘ziga xosliklarga ega bo‘lib, darslikka kiritilgan mavzularni o‘qitish usullari ham yangicha yondashuv va metodlarni talab qiladi. Mazkur darsliklarda ijodkor umr bayoni qisqa ifodalangani holda, badiiy matnni kengroq tushunish, mavzu yuzasidan mustaqil fikrlash masalalariga asosiy diqqat qaratildi. Yangilangan adabiyot darsliklarining yana bir afzalligi darsliklarda QR-kodlar joylashtirilganidir. QR-kod orqali o‘quvchilar berilgan asar bilan to‘liq tanishish, asar asosida ishlangan kinofilmlar, spektakllar va ijrolar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarda asarni teran anglash uning bosh g‘oyasi nimadan iborat ekanligini bilish va fikr yuritish uchun asar yuzasidan qiziqarli savollar va didaktik xarakterdagi topshiriqlar berilgan. “O‘zbek adabiyoti ta‘limida mazmuniy uzviylikni ta‘minlashda tabiiyki, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzlusizligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o‘quvchi-talabalarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Ushbu masalaning samarali yechimlari – adabiyot fanlarini integrasiyalash va uzviylikka yordam beradigan o‘qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi”[3:16].

Hozirda o‘quvchilarda darslikda berilgan mavzuni teran anglashi, asar haqida tezda xulosa chiqara olishi va o‘qituvchilar uchun ham darsni yanada qiziqarliroq va oson tarzda o‘quvchilarga yetkazib bera olishi uchun metodika sohasida ham ko‘plab yangiliklar bo‘lmoqda. „Fil“, „Puzzle“, „Qaynoq mikrafon“, „Avtofokus“ kabi elektron ta’lim dasturlari shular jumlasidandir.

Internet tarmog‘i orqali bajariladigan bir qancha texnologiyalar ham o‘quvchilar uchun juda samaralidir. Masalan, “flippity.net” sayti orqali biz har xil turdagи didaktik usullar bilan tanishib ularni dars jarayonida qo‘llashimiz mumkin.”[4]. Masalan, 6-sinf adabiyot darsligida Hojiakbar Shayxovning „Birinchi sinov“ nomli hikoyasi berilgan. Ushbu mavzuni o‘rgatishda flippity.net saytidagi usullardan birini qo‘llaymiz. Flippity.net saytida har xil turdagи usullar berilgan



ulardan birini tanlaymiz. Tanlagan texnologiyamizda ham o‘z xohishimizga qarab va mavzuga aloqador bo‘lgan turini qo‘llashimiz mumkin.



Aytaylik, ushbu saytda „Flower“ usulidan foydalansak, topshiriqni quyidagicha tashkil qilish mumkin: „Hikoyada qo‘llanilgan atamalarni toping?“ Mazkur topshiriqni bajarishdan oldin o‘quvchilar topishi kerak bo‘lgan atamalar ro‘yhati shakllantirib olinadi.

O‘quvchilardan bo‘s sh katakchalarni kerakli harflar orqali yashiringan atamaning to‘liq shaklini hosil qilish talab qilinadi. Agar o‘quvchilar katakchalarni to‘ldirish uchun to‘g‘ri harflarni tanlasa ball qo‘silib boraveradi. Ammo noto‘g‘ri harflar tanlansa gul asta-sekin to‘kilib boraveradi. Umumiy to‘plagan ballar hisoblanib gulning chap tarafida ko‘rinib turadi. Bu esa texnologiyaning muhim jihatlaridan biridir. Bu usul didaktik xarakterga ega bo‘lib o‘quvchilarda darsga qiziqish bilan birga sinovlardan yengimaslik, zukkolik va har bir maqsad uchun kuchli sabr qilish kabi xislatlarini rivojlantiradi.

Dars uchun didaktik materiallar tanlashda mavzuga aloqador bo‘lgan texnologiyani tanlash lozim. Ya’ni qo‘llangan har bir metoddan ma’lum maqsad ko‘zlanadi. Masalan, biz nega aynan „Flower“ usulini tanladik? Bilamizki, hikoyada bosh qahramon qiz Shahnoza koinotda, kema ichida yashab yerdagi kabi hayot quradi ya’ni baliq boqadi va gullar parvarishlaydi. Aynan mana shu gul Shahnozaning guli uni yerdagi kabi qanchalik parvarish qila oladi?-deya savol qo‘yamiz va biz gul parvarishida Shahnozga yordam beramiz kabi fikrlarni o‘quvchilarga uqtirishimiz lozim. Bu metod aynan 6-sinf o‘quvchilari uchun juda mos tanlovdir. Har bir metodni dars jarayonida to‘g‘ri qo‘llay bilsak bu avvalo, darsning va o‘qituvchining yutug‘idir. Chunki o‘quvchilar tafakkuri keng, zehni o‘tkir, axloqan barkamol va ma’naviyati boy bo‘lishi qaysidir ma’noda o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq.

Zamonaviy adabiy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish zamon talabi bo‘lish bilan birga, ularning ma’nani yetuk, har bir vaziyatga mustaqil baho bera oladigan va xulosa chiqara oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalashga har birimiz hissa qo‘shmog‘imiz lozim.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020- yil 24 yanvarda Oliy Majlisiga yo‘llagan Murojaatnomasi.  
<https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevningolij-25-01-2020>
2. <https://oz.sputniknews.uz/20201031/Mirziev-zililar-missiyasi-va-yangicha-dars-metodikasi-aida-15296962.html>
3. Mirzayeva Z. , Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. (an’anaviylikdan zamonaviylikka). Toshkent – 2020
4. flippity.net